
Xotin-qizlar faollariga maxsus planshetlar topshirildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyundagi 300-sonli qarori bilan mahallalardagi xotin-qizlar faollariga ijtimoiy xizmat yo'nalishida qo'shimcha vazifalar yuklatildi va "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi negizida mahallalarda davlat ijtimoiy xizmatini yoki yordamini ko'rsatishda davlat organlari va tashkilotlarining idoralararo elektron hamkorligini amalga oshirishga xizmat qiluvchi "Mahallada ijtimoiy xizmat" avtomatlashtirilgan maxsus elektron moduli ishlab chiqildi.

Bugun tuman hokimligi binosida 71 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridagi xotin-qizlar faollariga "Mahallada ijtimoiy xizmat" avtomatlashtirilgan maxsus elektron moduli o'rnatilgan planshetlar topshirildi.

2023-01-05 13:34:09